O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2025-Toshkent

“**O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari:** ***amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv***” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: 2025. ____-bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:
Normurodova N. filologiya fanlari doktori, professor;
Normamatov S. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Xolmanova Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Mavlyanov S. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Xidraliyeva Z. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Turdialiyev A. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Alimardanov E. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Qodirov U. o‘qituvchi.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi tomonidan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari:** ***amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi 2025-yil 24-mayda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

MUNDARIJA

YALPI YIG‘ILISH MA’RUZALARI

1	**MAMATKULOVA OZKAN Mamura Nasrullayevna,** Turkiyada shevashunoslik va o‘zbek shevalarining o‘qitilishi	**3**
2	**Turdimov Shomirza Ganiyevich** Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi va Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining ijodi	**9**
3	**Шамилова Гюнель Рахман кызы,** Структурно-семантические особенности фразеологических единиц с числовым компонентом	**12**
4	**Sobirov Abdulhay Shukurovich,** **Umidahon Rahmatullayeva,** Andijon viloyati etnotoponimlarining areal manzarasi	**17**
5	**Абдиназимов Шамшетдин Нажимович** Миллийлигимиз исми-шәрипимизден басланады	**23**
6	**Мынбаев Н.Ж.,** **Бобоходжаев Р.Х.,** К вопросу о классификации тюркских этнических имен	**26**
7	**Murodqosim Abdiyev,** **S. Rahmonov,** Pastdarg‘om tumani Chandir shevasiga xos so‘zlarning o‘zaro munosabatga kirishuvi holatlari	**34**
8	**Baxtiyor Mengliyev** “Korpus shevashunosligi” o‘quv fani haqida	**38**
9	**Elov Botir,**	
10	**Zulxumor Xolmanova,**	
11	**Samixon Ashirboyev** **O‘zbek shevalari normasi xususida**	**43**

1-SHO‘BA. SHEVALAR VA FOLKLORNING ILMIY MUAMMOLARI XORIJLIK OLIMLAR NAZDIDA

1	**Bahşiyeva Tunzala Latif kızı,** Ermenistan'daki türk kökenli yer adları	**47**
2	**Quliyeva Zülfiyyə Boris qızı,** Azərbaycan yaziçilarinin bədii əsərlərində toponimlərin üslubi xüsusiyyətləri (Cəlil Məmmədquluzadənin bədii nəsri nümunəsində)	**52**
3	**Абдусамад Эрмуҳаммедов,** **Мўминжон Турдибеков,** Тожикистонда ўзбек шеваларини ўрганилиши	**56**
4	**Boirjon Sheronov,** **Ixtiyor Ermatov,** To‘ra Sulaymon ijodida dialektizmlar	**60**
5	**Adilbekova Elmira Seytimovna,** **Berikkyzy Saya,** Turk dastanlarinda kahraman kültü	**64**
6	**Асадова Фатма Агаси кызы,** Обогащение Азербайджанского языка словами из современного турецкого языка	**68**

O‘ZBEK SHEVALARI NORMASI XUSUSIDA

ABOUT THE NORM OF UZBEK DIALECTS

Ashirboyev Samixan,
ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori,
E-mail:samixon.ashirboyev@mail.ru
10.52773/tsuull.conf.2025/EXRN9338

Annotation. *As is known, we have usually thought about the norm of the Uzbek literary language. There are no special works in Uzbek linguistics about the norm of the dialect itself, but instead of “norm”, the epithets “characteristic of the dialect” or “characteristic of the dialect” have been used. Indeed, there is no information in the theoretical literature about whether dialects have a norm, what parameters it is measured by, and in what aspects it differs from the concept of the literary language norm. This article presents an idea about the concept of norm, norm in dialects, its features in dialects, dialects.*

Key words. *literary language, dialect, dialect, dialect, colloquial language, dialect norm, dialect norm, dialect norm.*

Muammoning dolzarbligi. Ma’lumki, o‘zbek adabiy tili yozma va og‘zaki shaklda amalda bo‘ladi. Bu ikki shaklning xususiyatini belgilashda normalar tizimi qiyoslangan ma’lumotlarning uchratish qiyin bo‘ldi. Yozma adabiy tilning normasini belgilash, uni nazorat qilish va uni takomillashtirib borish qiyin masala emas. To‘g‘ri, uning ham o‘z muammolari bor, lekin og‘zaki adabiy til, uni normalari tizimini belgilash, ayniqsa, uning amal qilishini nazorat qilish nihotda mushkul, uning og‘zaki shakli deganda esa adabiy tilning yozma shakli asos qilib olinishiga ishora qilinadi va orfoepik normalari belgilangan, lekin amalda u doimo buzilib kelmoqda. Buning orasida *shevan*ing ham nutq jarayonidagi o‘rniga baho berilmay kelinmoqda. Maqomi belgilanmagan *so‘zlashuv tili* to‘g‘risida ham fikrlar borki, ularni tartibga solish vaqti yetib qoldi. Bu maqolada ushbu tushunchalarga aniqlik kiritish zaruriyati hisobga olindi.

Maqolada mavjud fikrlarning mohiyati tahlil qilindi va o‘z qarashlarimiz bilan ular boyitildi.

Muammoning yechimi. Aksariyat ilmiy tadqiqotlarda adabiy til, so‘zlashuv tili (nutqi), sheva (dialekt, lahja) munosabatlariga doir fikrlarga duch kelamiz. Fanda adabiy til va shevaning farqlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan masalada munozaraga ehtiyoj qolmagan. To‘g‘ri, bu masala atrofida ilmiy tadqiqotlar olib borilishi uchun mavzular hamon bor. Bu maqolada adabiy til va shevalar munosabatiga emas, balki bu ikki tushuncha bilan birga qo‘llanayotgan so‘zlashuv tili (nutqi) hodisasining tildagi o‘rni masalasi hamda shevalarnining ham o‘z normalar tizimi borligi munozara qilinadi.

Har bir adabiy til normalar sistemasidan iborat bo‘ladi. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqat bo‘lib, uning ham o‘ziga xos xususiyatlari bor. Ma’lumki, adabiy til normasi tarixiy kategoriya bo‘lib, u muayyan davrning talablarini aks ettiradi. Garchand o‘zbek adabiy tili qadimgi turkiy tildan to hozirgacha bo‘lgan uzoq davrni bosib o‘tgan bo‘lsa-da, u turli davrlarda o‘z normalar tizimiga ega bo‘lgan. Boshqacha aytganda, bir tilning turli davrlarida normalar tizimi o‘ziga xos xususiyat kasb etadi va davr adabiy tilining asosiy belgisi bo‘lib tarixda qoladi. Adabiy til normasining yuzaga kelishida ikki an’ana borligi ayon bo‘lib qolmoqda:

1.Adabiy normalar stixiyali ravishda yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, uning qoida-qonunlari biror shaxs yoki ijtimoiy guruh tomonidan yaratilmaydi, balki atoqli va buyuk adiblarning asarlari adabiy til namunasi sifatida qabul qilinadi. Eski o‘zbek adabiy tili degan nomda butun dunyoga mashhur bo‘lgan o‘zbek adabiy tili Atoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Alisher

Navoiy, Bobur kabi mumtoz adiblar asarlari tili tufayli shakllangan va shu davr adabiy tili an’anasi, ya’ni normasi sifatida e’tirof qilingan.

Bunday an’anada yuzaga kelgan, davr ijtimoy guruhlari tomonidan e’tirof etilgan bo‘lsa-da, ushbu adabiy tilni boyitish, unda so‘z va grammatik shakllarning qo‘llanishi masalalari mutafakkir adiblarimiz tomonidan ta’rif va tavsif qilib borilgan. Bu borada biz Alisher Navoiy bobokolonimizning xizmatlarini alohida ta’kidlashimiz lozim bo‘ladi. U “Muhokamatul lug‘atayn” asarida o‘zi ijod qilgan davr adabiy tilining leksik, fonetik, grammatik normalarini shakllantirish, uni asoslashga erishganki, bu ulkan ishi uni o‘zbek adabiy tilining asoschisi deb atalish sabablaridan biri bo‘lib xizmat qilgan edi.

2.Adabiy tilning xususiyati, unda amal qiladigan qoidalar ma’muriy organ tomonidan tuzilgan ijtimoiy guruhlar tomonidan ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi, ya’ni adabiy til normalari yaratiladi. Hozir amal qilayotgan adabiy tilimiz ijtimoiy guruhlar, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va Davlat tomonidan e’tirof etilgan adabiy tildir.

Adabiy til normalarini belgilash yozuv madaniyati bilan uzviy bog‘langan. O‘zbek xalqi tarixda arab, kirill, lotin alifbosidan foydalanib keldi hamda shu alifbo xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adabiy til (yozuv) normalariga rioya qilingan.

Shuni ta’kidlash joizki, adabiy tilning normalari to‘g‘risida gap ketganda, uning yozma shakli e’tiborda tutiladi. Adabiyotlarimizda uning og‘zaki shakli to‘g‘risda ham ma’lumot beriladi. Demak, bir adabiy tilning ikki shakli va ikki tipdagi normasi to‘g‘risida fikr yuritilishi lozim bo‘ladi. Garchand adabiy tilning og‘zaki shakli uning yozma shakli asosida yuzaga kelsa-da, uning o‘ziga xos tomonlari borligi ma’lum. Muhimi, u endi kishilarning kundalik turmushida faol ishlatayotgan shevasiga yoki har bir shaxsning adabiy tilni qanchalik o‘zlashtirganligiga to‘qnash keladi, demak, bu adabiy til normalaridan ixtiyor-beixtiyor chekinishiga olib keladi va u ham o‘z navbatida bu adabiy tilning shevalarimiz yoki bir guruh shevalar tomon siljishga olib keladi. O‘zbekiston televideniesidagi munozaralarda buning yaqqol namunasi ko‘rinadi, ya’ni notiqlarning tajribali, tajribasiz, o‘qimishliligidan qat-iy nazar, shevalarimizga beixtiyor murojaat qilinmoqdaki, bu jarayon tobora kuchaymoqda. Adabiy til va sheva unsurlarini ishlatgan holda o‘z nutqini tashkil etish, ayniqsa, boshlovchilarimiz nutqiga ham tegishli bo‘lib turibdi. Xo‘sh, bu holni qanday baholashimiz kerak? Tanqidchilarimizga qo‘yib berilsa, albatta, u salbiy baholanadi. Shuni aytish lozimki, sof adabiy til normalariga rioya qilgan holda yoza oladigan shaxslarimiz ko‘pchilikni tashkil etadi, lekin sof o‘zbek adabiy tilida o‘z nutqini dialektizmlarsiz, jargon va vulgar so‘zlarsiz tashkil eta oladigan birorta shaxsni uchratish qiyin. Demak, adabiy til va sheva o‘rtasida qandaydir oraliq hodisa mavjudligi to‘g‘risidagi fikr o‘z tasdig‘ini topadigan ko‘rinadi. Bu yangilik emas, balki bu hodisa tilshunoslikda *so‘zlashu vtili* (u rus tilidagi “razgovornыy yazыk” iborasidan tarjima qilib olingan) deb yuritilmoqda.

Rasmiy doiralarda (ilmiy munozara, televideniе bahslarida) ba’zan shevaga xos so‘zlardan beixtiyor foydalanishlarni salbiy hodisa deb qarashga qo‘shilmagan bo‘lardik, chunki sheva faktlari ham o‘z tilimiz boyligidir, u bugun adabiy til normasi bo‘lmasligi mumkin, lekin bora-bora u adabiy til normasiga aylanishi tabiiy. Hatto adabiy tilning yozma shaklida ham ustoz adiblar ijodida shunday dialektal so‘zlar qo‘llangan, ularni, so‘zsiz, adabiy tilimizning imkoniyati deb qarash lozim bo‘ladi. Jumladan, so‘z tanlashga o‘ta ziqna bo‘lgan adiblar ham shevalarimizning nodir boyliklarini dialogik nutqda emas, balki muallif nutqida keltirib boradiki, unga faqat ijobiy munosabatda bo‘lishimiz lozim bo‘ladi.

Axborot tizimlarida va fanda shevalar muayyan hududlarning bevosita muloqot quroli ekanligi aytilgani holda, ularning yo‘qolib ketishi to‘g‘risida ham fikrlar uchraydiki, uni haqiqatdan uzoq, deb hisoblaymiz, lekin ular o‘zining dastlabki xususiyatlarini o‘zgartirishi mumkin [https//studfile.net/previevw]. Odatda sheva haqida fikr yuritilganda, u adabiy tilga qarama-qarshi qo‘yiladi. Bir jihatdan to‘g‘ri, lekin adabiy til kabi shevalarning ham o‘z normasi mavjudligi to‘g‘risida adabiyotlarda fikrlarni uchratmadik, lekin “Rus dialektologiyasi”ning bir o‘rnida, ya’ni adabiy til normasi va dialektlar to‘g‘risida gap ketganida “dialektlar normasi adabiy

til singari qat’iy emasligi” aytiladi, xolos[Bromley, 1989, 6]. Bu fikr tasodifiy aytilgan bo‘lsa-da, shevalar ham o‘ziga xos normaga ega bo‘ladi, degan tushuncha anglashiladiki, uni rivojlantirish lozim bo‘ladi, lekin bu norma sheva doirasida bo‘ladi. Har bir shevaga xos normani aniqlash va anormadan saqlanish dialektologning tadqiqot jarayonidagi asosiy ishidir. Ta’kidlash joizki, mahalliy dialektlar, bir tomondan, hozirgi o‘zbek adabiy tilining, ikkinchi tomondan, qo‘shni shevalarning (ba’zan tillarning) ta’siriga uchrashi mumkin. Bunda norma tushunchasini yana mukammallashtirishga hojat bo‘ladi. Bunda ham ikki qarama-qarshi hukm chiqarishga asos bor:

1.Shevaning unga bo‘lgan ichki va tashqi ta’siridan tozalab olingandan keyingi holatini norma deb qarash.

2. Shevaning butun o‘z tarixiy tizimi va o‘zlashgan shakllari bilan birga olib, uning norma deb qarash.

Bu esa shevani o‘rganayotgan tadqiqotchiga ancha mushkulliklarni keltirib chiqaradiki, undan chiqib ketish faqat shevalar bilimdonlarigagina nasib etadi. Ma’lumki, shevalar bo‘yicha tadqiqot ishlari ikki toifadagi shaxslar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda: 1) sheva vakili bo‘lmagan shaxs. Bunday shaxslar sheva xususiyatlarini, ya’ni shevaning adabiy tildan farqli xususiyatlarini yaxshi payqay oladilar, bu jihatdan sheva vakiliga nisbatan ustun turadi; 2) sheva vakili bo‘lgan shaxslar. Ular shevaga xos xususiyatlarni ba’zan ajratib ololmasligi mumkin, chunki ular o‘zlari o‘rganayotgan shevaga moslashib qolgan bo‘ladi, lekin sheva vakillari nutqidagi sof sheva faktlari va o‘zlashgan faktlarni jiddiy farqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi va sheva normasini o‘rnata oladi, bu masalada sheva vakili bo‘lmagan shaxsdan ustunlikka ega bo‘ladi. Dialektologik tadqiqotlarda shevalrning o‘z normasi jihatidan yondashish muhim bo‘lib turibdi. Hech sir emaski, hozirgi tadqiqotlarda shevadan nimani topsa, shuni sheva fakti sifatida talqin qilish an’ana bo‘lib qolgan. Demak, endilikda tadqiqotlar shevaning o‘z (birlamchi) va o‘zlashtirilgan qatlamlarini anglagan holda olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘rinda *o‘zlashgan* terminini aslida sheva uchun yot bo‘lgan harqanday til unsuriga nisbatan ishlatish mumkin bo‘ladi.

Har qalay bo‘lsin, sheva, dialekt, lahja kesimlarida ularning normasini belgilash mumkinmi, yo‘qmi degan savol ko‘ndalang keladi. Bundan yana bir masala yuzaga chiqadi, ya’ni bu kesimlarning normasi qanday belgilanadi? Bunda shevalararo, dialektlararo, lahjalararo aynan bo‘lgan dialektal hodisalarni qanday qilib biror bosqich bilan munosabati qaday hal qilinadi?

Endi so‘zlashuv tili masalasiga to‘xtalamiz. Garchand, aniq aytilmasa-da, dialogik nutqdagi dialektal so‘z, jargon va vulgar so‘zlarni qo‘shib gapirish so‘zlashuv nutqi [Abdusaidov, 2016, 82] sifatida taqdim qilingan ishlar bor. B.O‘rinboyev so‘zlashuv nutqining rus va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishini tavsif qiladi va so‘zlashuv nutqini yozma nutq va dialekt o‘rtasidagi oraliq shakl (forma) deb ataydi [O‘rinboyev, 1974, 14]. Axborot tizimlarida adabiy tilning og‘zaki shakli so‘zlashuv tilini anglatishi ta’kidlangani holda, uning eng muhim turlari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi: *mahalliy dialektlar, ijtimoiy dialektlar, oddiy so‘zlashuv nutqi (prostorechie), “umumiy” so‘zlashuv tili.* Ko‘rinadiki, so‘zlashuv tili to‘g‘risida yagona tushuncha yo‘q. Ulardan eng so‘nggisi to‘g‘risida shunday izoh beriladi: ya’ni bu til yirik shahar shevalarida yuz beradi, bu yerda aholi juda ko‘p yig‘ilganligi uchun ham shevalar orasidagi farqlar yo‘qolib ketadi va shaharning umumiy so‘zlashuv tili paydo bo‘ladi va u adabiy tildan kichik farq qiladi. Bunday dialektlar adabiyotlarda “urban dialekt” degan termin bilan yuritilmoqda va u o‘ziga xos dialektni hosil qilmoqda. Xo‘sh, bu jarayon o‘zbek shaharlari, xususan, Toshkent shahrida amal qiladimi, degan savol tug‘iladi. Toshkent shahri ham dunyoning yirik aholi punktlaridan biri, lekin kuzatishlarimiz bu yerda hamon Toshkent shahar dialektining singdiruvchi pozitsiya egallayotganligini ko‘rish mumkin, ya’ni ota-onalari boshqa joylardan ko‘chib kelganlarning bog‘cha, maktab yoshi bolalari Toshkent shevasini o‘zlashtirmoqda, kattalar esa adabiy tilda gapirishga urinadilar, ammo nutqiy qiyinchilik yuzaga kelgan hollarda har qaysisi o‘z (ona) shevasini aralashtirib gapirish an’anasi paydo bo‘lmoqda. Albatta, bunday holatni Toshkent shahri uchun so‘zlashuv tili sifatida qabul qilish mumkin emas. Bu shaharga, yirik shaharlarga ko‘chib kelayotgan o‘zbeklarimiz oilalarida hamon o‘z shevalarida muloqot qiladilar va ko‘chada hamda

rasmiy doiralarda adabiy tilda (biroz buzibroq bo‘lsa-da) muloqot qiladilar. Demak, o‘zbek tilida so‘zlashuv tili degan tushuncha ishlamaydi, balki o‘zbeklarimiz jamoat joylarida adabiy tilda (avval ta’kidlaganimizdek, qismn o‘z shevasi unsurlari bilan) va o‘z shevalarida muloqotda bo‘lmoqdalar.

Masalaning bir nozik tomoni ham bor. U ham bo‘lsa, “so‘zlashuv tili”, “so‘zlashuv nutqi” terminlarining tarkibi mantiqan to‘g‘ri tuzilmaganligidir, “til”, “nutq”, “so‘zlashuv” so‘zlarining barchasida “so‘zlashish” tushunchasi bor. Demak, “so‘zlashuv tili”, “so‘zlashuv nutqi” tarzida qo‘llashimiz tavtologiyaning o‘ziginasidir. Bunday fikr yuritishdan maqsad o‘zbek tilshunosligida bu terminlardan foydalanishga hojat yo‘qligidir.

Ma’lum bo‘ladiki, har bir til va uning shevalari holati va taraqqiyotiga shu tilning funksional holatiga qarab baho berish lozim bo‘ladi. Ingliz, rus tillaridagi shevalarning xususiyati u yerlarda shahar aholisining tub va migrantlar tili asosida shakllanayotganligi ma’lum bo‘lmoqda. O‘zbek shevalari taraqqiyotida bu kabi jarayonlar yo‘q, balki har bir sheva o‘zining tarixiy xususiyatlarini asosan saqlab qolmoqda va har qaysi shevaning o‘ziga xos normalari ham mavjud

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдусаидов А. Нутқ маҳорати. – Самарқанд, 2016.
2. Бромлей С. В. Русская диалектология. – М.: Просвещение, 1989.
3. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтасиси масалалари, – Тошкент: Фан, 1974.
4. Наука и образование в современном мире: вызов XXI века // Материалы VII Международной научно-практической конференции. – Нурсултан, 2020, – С. 134-137.